In recent years, depressive disorders have been recognized as one of the most pressing scientific and practical problems in psychiatry and medicine. This is due to their high prevalence, chronic course, as well as their significant negative impact on patients' quality of life, social adaptation, and functional activity. The prevalence of depressive disorders in the general population averages 10–16%, while in elderly individuals this rate is reported to be almost twice as high. Changes in modern socio-economic conditions, lifestyle transformations, and the increase in stress factors contribute to the disruption of psychological adaptation mechanisms in older adults and create conditions for the development of mental health problems. As a result, the prevalence of depressive disorders in this age group continues to increase. In addition to psychotraumatic factors, the presence of various somatic diseases plays an important role in the development and course of depression. In elderly patients, cardiovascular diseases are often accompanied by cerebrovascular changes. Therefore, pathological conditions associated with impaired cerebral circulation are considered one of the main etiological factors contributing to the development of psychoorganic syndrome. Mild cognitive impairments are also detected in 30–50% of such patients, which further complicates the clinical presentation of the disease. The comorbidity of psychoorganic syndrome of vascular origin and depressive disorders is explained, on the one hand, by the high prevalence of both conditions and, on the other hand, by the presence of common pathogenetic mechanisms. Despite numerous scientific studies conducted on this issue in recent years, the clinical characteristics, diagnostic criteria, and assessment of treatment efficacy in depressive disorders associated with psychoorganic syndrome of vascular origin remain relevant and require further investigation. Improving social adaptation, daily functioning, and quality of life in elderly patients suffering from depressive disorders is considered one of the priority areas of modern psychiatry. From this perspective, the concept of "quality of life" is regarded as an important criterion that allows for a comprehensive assessment of a patient's health status and psychological well-being not only in somatic medicine but also in psychiatric practice. The formation of the concept of quality of life has developed through several stages. Initially, in the 1980s,

special psychometric scales designed to assess psychological well-being were developed and introduced into clinical practice. At the subsequent stage, this concept was expanded and began to be interpreted as a multidimensional criterion that includes not only mental state but also a person's daily functioning, social adaptation, subjective satisfaction, and overall sense of well-being.
Keywords: psychoorganic syndrome, depression, psychopathological symptoms, treatment efficacy, Hamilton Depression Rating Scale.

КУЧИМОВА Чарос Азаматовна
Докторант (DSc)
Очилов Улугбек Усманович
DSc, доцент
Самаркандский государственный медицинский университет

КЛИНИКО-ПСИХОПАТОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПСИХООРГАНИЧЕСКОГО СИНДРОМА СОСУДИСТОГО ГЕНЕЗА, ПРОТЕКАЮЩЕГО С ДЕПРЕССИВНЫМИ РАССТРОЙСТВАМИ У ПАЦИЕНТОВ ПОЖИЛОГО ВОЗРАСТА, И ДИНАМИКА ЭФФЕКТИВНОСТИ ЛЕЧЕНИЯ

АННОТАЦИЯ

В последние годы депрессивные расстройства признаны одной из наиболее актуальных научно-практических проблем психиатрии и медицины. Это обусловлено их высокой распространённостью, хроническим течением, а также значительным негативным влиянием на качество жизни пациентов, их социальную адаптацию и функциональную активность. Частота встречаемости депрессивных расстройств среди населения в среднем составляет 10–16 %, при этом у лиц пожилого возраста данный показатель почти в два раза выше. Изменения современных социально-экономических условий, трансформация образа жизни и увеличение количества стрессовых факторов способствуют нарушению механизмов психологической адаптации у людей пожилого возраста и развитию проблем психического здоровья. В результате этого распространённость депрессивных расстройств среди данной возрастной группы продолжает увеличиваться. Кроме психотравмирующих факторов, важную роль в формировании и течении депрессии играет наличие различных соматических заболеваний. У пациентов пожилого возраста заболевания сердечно-сосудистой системы часто сопровождаются цереброваскулярными изменениями. В связи с этим патологии, связанные с нарушением мозгового кровообращения, рассматриваются как один из основных этиологических факторов развития психоорганического синдрома. У 30–50 % таких пациентов также выявляются лёгкие когнитивные нарушения, которые дополнительно усложняют клиническую картину заболевания. Коморбидное сочетание психоорганического синдрома сосудистого генеза и депрессивных расстройств объясняется, с одной стороны, высокой распространённостью обоих состояний, а с другой — наличием общих патогенетических механизмов их развития. Несмотря на проведение многочисленных научных исследований по данной проблеме в последние годы, вопросы клинических особенностей, диагностических критериев и оценки эффективности лечения депрессивных расстройств, протекающих на фоне психоорганического синдрома сосудистого генеза, остаются актуальными. Улучшение социальной адаптации, повседневной активности и качества жизни пожилых пациентов, страдающих депрессивными расстройствами, является одним из приоритетных направлений современной психиатрии. С этой точки зрения понятие «качество жизни» рассматривается как важный критерий комплексной оценки состояния здоровья и психического благополучия пациента не только в соматической медицине, но и в психиатрической практике. Формирование концепции качества жизни происходило в несколько этапов. Первоначально, в 1980-е годы, были разработаны и внедрены в практику специальные психометрические шкалы, предназначенные для оценки психологического благополучия человека. На последующем этапе данное понятие было расширено и стало

рассматриваться не только как показатель психического состояния, но и как многокомпонентный критерий, включающий повседневную жизнедеятельность человека, социальную адаптацию, субъективную удовлетворённость и общее ощущение благополучия.

Ключевые слова: психоорганический синдром, депрессия, психопатологическая симптоматика, эффективность лечения, шкала Гамильтона.

KUCHIMOVA Charos Azamatovna
Doktorant (DSc)
OCHILOV Ulugbek Usmanovich
DSc, dotsent
Samarqand davlat tibbiyot universiteti

KEKSA YOSHDAGI BEMORLARDA DEPRESSIV BUZILISHLAR BILAN BIRGA KECHUVCHI QON TOMIR GENEZLI PSIXOORGANIK SINDROMNING KLINIK-PSIXOPATOLOGIK XUSUSIYATLARI VA DAVOLASH SAMARADORLIGI DINAMIKASI

ANNOTATSIYA

So‘nggi yillarda depressiv buzilishlar psixiatriya va tibbiyotning eng dolzarb ilmiy-amaliy muammolaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Bunga ushbu kasalliklarning keng tarqalganligi, surunkali kechishi hamda bemorlarning hayot sifati, ijtimoiy moslashuvi va funksional faolligiga sezilarli darajada salbiy ta’sir ko‘rsatishi sabab bo‘lmoqda. Aholi orasida depressiv buzilishlarning uchrash chastotasi o‘rtacha 10–16 % ni tashkil etsa, keksa yoshdagi shaxslarda bu ko‘rsatkich deyarli ikki baravar yuqori ekanligi qayd etilgan. Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlardagi o‘zgarishlar, turmush tarzining o‘zgarishi hamda stress omillarining ortishi keksa yoshdagi insonlarda psixologik moslashuv mexanizmlarining buzilishiga va ruhiy salomatlik muammolarining rivojlanishiga zamin yaratmoqda. Natijada ushbu yosh guruhida depressiv buzilishlarning tarqalish darajasi ortib bormoqda. Bundan tashqari, psixotravmatik omillar bilan bir qatorda, turli somatik kasalliklarning mavjudligi ham depressiyaning shakllanishi va kechishida muhim o‘rin tutadi. Keksa yoshdagi bemorlarda yurak-qon tomir tizimi kasalliklari ko‘pincha serebrovaskulyar o‘zgarishlar bilan kechadi. Shu sababli miyaning qon aylanishi buzilishlari bilan bog‘liq patologiyalar psixoorganik sindrom rivojlanishining asosiy etiologik omillaridan biri sifatida qaralmoqda. Bunday bemorlarning 30–50 % yengil kognitiv buzilishlar ham aniqlanib, ular kasallikning klinik manzarasini yanada murakkablashtiradi. Qon tomir genezli psixoorganik sindrom va depressiv buzilishlarning komorbid holatda uchrashi, bir tomondan, har ikkala kasallikning yuqori tarqalganligi, ikkinchi tomondan esa ularning umumiy patogenetik mexanizmlarga ega ekanligi bilan izohlanadi. So‘nggi yillarda ushbu muammo yuzasidan ko‘plab ilmiy izlanishlar olib borilganiga qaramay, qon tomir genezli psixoorganik sindrom bilan kechuvchi depressiv buzilishlarning klinik xususiyatlari, diagnostik mezonlari hamda davolash samaradorligini baholash masalalari hanuzgacha dolzarbligicha qolmoqda. Depressiv buzilishlardan aziyat chekayotgan keksa bemorlarning ijtimoiy moslashuvi, kundalik faoliyati va hayot sifatini yaxshilash zamonaviy psixiatriyaning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, “hayot sifati” tushunchasi nafaqat somatik tibbiyotda, balki psixiatriya amaliyotida ham bemorning sog‘lig‘i va ruhiy farovonligini kompleks baholash imkonini beruvchi muhim mezon sifatida qaraladi. Hayot sifati konsepsiyasining shakllanishi bir necha bosqichlarda rivojlangan. Dastlab, 1980-yillarda psixologik farovonlikni baholashga mo‘ljallangan maxsus psixometrik shkalalar ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan. Keyingi bosqichda esa ushbu tushuncha kengaytirilib, nafaqat ruhiy holat, balki insonning kundalik hayot faoliyati, ijtimoiy moslashuvi, subyektiv qoniqishi va umumiy farovonligini o‘z ichiga oluvchi ko‘p qirrali mezon sifatida talqin qilina boshlandi.

Kalit so‘zlar: psixoorganik sindrom, depressiya, psixopatologik simptomatika, davolash samaradorligi, Hamilton shkalasi.

Kirish. Mazkur maqolada keksa yoshdagi bemorlarda depressiv buzilishlarning qon tomir genezli psixoorganik sindrom bilan komorbid kechishi sharoitida uning klinik-psixopatologik simptomatikasi va davolash jarayonidagi dinamikaning samaradorligi tahlil qilinadi. Ushbu komorbid holat kuzatiladigan bemorlarda jismoniy va kognitiv faoliyatning sezilarli darajada pasayishi, kundalik turmush va maishiy vazifalarni bajarishda qiyinchiliklarning yuzaga kelishi, shuningdek, o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish qobiliyatining cheklanishi kuzatiladi. Mazkur omillar bemorlarning umumiy hayot sifati va funksional mustaqilligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Depressiv simptomatika bilan psixoorganik buzilishlarning birgalikda namoyon bo‘lishi bemorlarning ijtimoiy moslashuv darajasining pasayishiga, oila a’zolari va atrofdagilar bilan muloqotning cheklanishiga, shuningdek, jamiyatdagi faolligining susayishiga olib keladi. Hayotdan qoniqish darajasi, intellektual va jismoniy ish qobiliyati hamda psixososial funksionallikni kompleks baholash kasallikning bemor hayotiga ko‘rsatadigan ta’sirini sifat va miqdor jihatidan aniqlash imkonini beradi. Shu bilan birga, bunday yondashuv funksional yetishmovchilik rivojlanish xavfi yuqori bo‘lgan bemorlarni o‘z vaqtida aniqlashga xizmat qiladi. Klinik-psixopatologik tahlil natijalari funksional buzilishlarning darajasini baholash, kasallikning rivojlanish dinamikasini kuzatish hamda keksa yoshdagi bemorlar uchun individual yondashuvga asoslangan kompleks davolash va reabilitatsiya choralarini rejalashtirishda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tekshiruv usullari: Tadqiqot jarayonida klinik-psixopatologik tekshiruv usullari qo‘llanilib, ruhiy buzilishlarning og‘irlik darajasini aniqlash maqsadida xalqaro amaliyotda keng qo‘llaniladigan standart baholash shkalalaridan foydalanildi. Jumladan, depressiv simptomlarning og‘irligini baholash uchun Gamilton depressiya shkalasi (HAM-D), kognitiv funksiyalar holatini aniqlash uchun Mini-Mental State Examination (MMSE), umumiy klinik holat va davolash samaradorligini baholash uchun Clinical Global Impression (CGI) shkalasi qo‘llanildi. Olingan natijalar matematik-statistik usullar yordamida qayta ishlanib, tahlil qilindi. Tadqiqot 2023–2025-yillar davomida Respublika ixtisoslashtirilgan psixiatriya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining Samarqand filialining ambulator va statsionar bo‘limlari bazasida amalga oshirildi. Asosiy guruhni qon tomir genezli psixoorganik sindrom fonida rivojlangan depressiv buzilishlar tashxisi bilan davolanayotgan 105 nafar bemor tashkil etdi. Ularning 22 nafari erkak va 83 nafari ayol bo‘lib, yoshi 60–80 yosh oralig‘ida edi. Nazorat guruhiga esa depressiv buzilish tashxisi qo‘yilgan 53 nafar bemor kiritildi. Tadqiqotga jalb etilgan barcha ishtirokchilar Xalqaro kasalliklar tasnifining 10-qayta ko‘rib chiqilgan nashri (ICD-10) mezonlariga muvofiq tanlab olindi. Tadqiqotga F33 — qaytalanuvchi depressiv buzilish hamda F06.7 — qon tomir genezli yengil kognitiv buzilish (demensiya darajasiga yetmagan) tashxislari qo‘yilgan va kasallikning klinik kechish xususiyatlariga mos keluvchi bemorlar kiritildi.

Tadqiqot natijalari: Tadqiqot natijalari klinik-statistik jihatdan tahlil qilinganda, asosiy va nazorat guruhlarida 70–79 yosh toifasiga mansub bemorlar ustunlik qilgani aniqlandi. Tadqiqot ishtirokchilarining o‘rtacha yoshi 71,06 ± 1,09 yilni tashkil etdi. Asosiy guruhda ayollar soni sezilarli ustun bo‘lib, ular umumiy bemorlarning 79,62 % ini tashkil qildi. Nazorat guruhida esa bemorlarning o‘rtacha yoshi 73,36 ± 1,62 yil bo‘lib, ushbu guruhda ham ayollar ulushi yuqori (84,31 %; n=43) ekanligi qayd etildi. Aniqlangan demografik ko‘rsatkichlar umumiy aholi tarkibidagi yosh va jins nisbatlari, shuningdek, gerontologik hamda epidemiologik tadqiqotlarda kuzatilgan qonuniyatlar bilan mos keladi. Xususan, 60 yoshdan oshgan shaxslar orasida erkaklar va ayollar nisbati o‘rtacha 1:1,5 ni tashkil etishi qayd etilgan (Akopov L.M., 2020). Ushbu holat, ayniqsa, depressiv buzilishlar uchun xos bo‘lib, ayollarda ushbu patologiyaning uchrash chastotasi erkaklarnikiga nisbatan ancha yuqori hisoblanadi. Adabiyot ma’lumotlariga ko‘ra, keksa yoshdagi ayollarda depressiv buzilishlar erkaklarga qaraganda taxminan uch baravar ko‘proq uchraydi (Myakotnykh V.S., Borovkova T.A., 2022). Mazkur tadqiqotda olingan natijalar ham ushbu epidemiologik ma’lumotlarni tasdiqlaydi va asosiy hamda nazorat guruhlarida ayollar ulushining yuqoriligi bilan tavsiflanadi (1-jadval).

1-jadval

Bemorlarning yosh va jins bo‘yicha taqsimlanishi

Yosh	Jins		Jami
	Erkak	Ayol	

	Abs.son	%	Abs.son	%	Abs.son	%
60-69	7	33,33	33	40,24	40	38,83
70-79	15	61,90	40	48,78	53	51,46
80-89	1	0.97	11	10,98	10	9,71
Jami	23	20,39	84	79,61	105	100

O‘tkazilgan davolash medikamentoz terapiya va psixokorreksion ta’sirlarni qamrab oldi. Davolashning stasionar kursi o‘rtacha davomiyligi 51,75±1,13 kunni tashkil etdi. Bemorlarning asosiy qismi (103 nafar, 98,70%) antidepressantlar qabul qildi. Bunda bemorlarga yaxshi o‘zlashtiriluvchanlik va xavfsizlik profiliga ega bo‘lgan antidepressantlar buyurildi. Jumladan, 18,45% bemorlarga serotoninni qayta so‘rilishini ingibirlovchi antidepressantlar (sertralin, fevarin, paksiI, fluoksetin), 13,58% bemorlarga serotoninni qayta so‘rilishini ingibirlovchi/serotonin antagonisti hisoblangan trazodon (Trittiko), 10,67% bemorlarga esa serotonin va noradrenalinni qayta so‘rilishini ingibirlovchi selektiv antidepressant — venlafaksin (Venlaksor) buyurildi. Melatonin retseptorlari agonisti sifatida agomelatin (Valdoksan) hamda monoaminooksidaza ingibitori — pirazidol preparatlari 8,75% holatlarda qo‘llanildi. α2-adrenoretseptorlar antagonisti — mianserin (Lerivon) esa 28,16% holatlarda tayinlandi. 1,94% bemorlar serotoninni qayta so‘rilishini faollashtiruvchi antidepressantlardan tianeptin (Koaksil) qabul qildi. Faqat 9,71% bemorlarga klassik trisiklik antidepressant — amitriptilin buyurildi. Antidepressantlar bemorlarning keksa yoshi, mavjud yurak-qon tomir tizimi kasalliklari va ularning asoratlari, shuningdek markaziy asab tizimining organik yetishmovchiligi shakllangan holatlar hisobga olingan holda, o‘rtacha terapevtik dozadan oshmagan miqdorlarda buyurildi. 15,53% holatlarda antidepressiv davolash neyroleptiklar bilan to‘ldirildi. Qo‘llanilgan antipsixotik preparatlar tarkibiga klassik neyroleptiklar — tioridazin (Sonapaks), teralijen (alimemazin) va xlorprotixen, shuningdek atipik antipsixotiklar — kvetiapin (Seroquel, Lakvel, Ketilept) hamda risperidon (Rispolept, Risdonal, Risset, Rispaksol) kiritildi. Tioridazin 4,86% hollarda qo‘llanildi. Kvetiapin va risperidon preparatlari esa 3,88% bemorlarda ishlatildi. Qolgan kuzatuvlarda teralijen, etapirazin va xlorprotixen preparatlari tavsiya etildi. Barcha holatlarda mazkur preparatlar kichik terapevtik dozalarda qo‘llanildi.

Anksiyolitiklar (trankvilizatorlar) asosiy guruhdagi bemorlarning 74,82% qo‘llanildi. Benzodiazepin guruhiga mansub anksiyolitik preparatlar 55,33 % holatlarda ishlatildi. Ular orasida aksariyat hollarda fenazepam - 45 nafar bemorda (78,95 %), klonazepam - 8 nafar bemorda (12,28 %), relanium - 5 nafar bemorda (7,01 %) va alprazolam - 1 nafar bemorda (1,75 %) qo‘llanildi. Anksiyolitiklar (trankvilizatorlar) asosiy guruhdagi bemorlarning 74,80% qo‘llanildi. Benzodiazepin guruhiga mansub anksiyolitik preparatlar 55,35% holatlarda ishlatildi. Ular orasida aksariyat hollarda fenazepam - 46 nafar bemorda (78,94 %), klonazepam - 8 nafar bemorda (12,28 %), relanium - 5 nafar bemorda (7,1 %) va alprazolam - 1 nafar bemorda (1,75%) qo‘llanildi. Difenilmetan hosilasi hisoblangan ataraks (gidroksizin) preparati bemorlarning 11,68% buyurildi, boshqa farmakologik guruhlarga mansub anksiyolitiklar esa 9,75 % holatlarda qo‘llanildi. Preparatlarning asosiy qismi kichik terapevtik dozalarda (79,22 %) ishlatildi. Bemorlarning 15,79% dori vositalari parenteral yo‘l bilan yuborilgan bo‘lsa, qolgan holatlarda preparatlar peroral tarzda qabul qilindi.

Asosiy guruhdagi bemorlarning 16 nafarida (15,56 %) timostabilizatorlar bilan davolash olib borildi. Ushbu preparatlar orasida karbamazepin (Finlepsin) eng ko‘p qo‘llanilgan bo‘lib, 8 ta holatda (53,35 %) tayinlangan. Valproat preparatlari 2 nafar bemorda (13,33 %), boshqa guruhlarga mansub timostabilizatorlar esa 5 nafar bemorda (33,33 %) qo‘llanildi.

Farmakoterapiya davomida barcha bemorlarga serebrovaskulyar buzilishlarni bartaraf etishga yo‘naltirilgan preparatlar, jumladan, tsinnarizin, vinpotsetin (kavinton), nitsergolin (sermion) va pentoksifillin (trental) qo‘llanildi. Shuningdek, davolash majmuasida nootrop vositalar (neyrometabolik stimulyatorlar)dan ham foydalanildi. Ular 81,56 % hollarda tayinlangan. Ushbu guruh tarkibiga GAMK-ergik ta’sirga ega preparatlar (fenibut, pantogam), shuningdek xolinergik ta’sir ko‘rsatuvchi vositalar - xolin alfostserat (gliatilin), aksamon (ipidacrin), galantamin (Reminil), rivastigmin (exelon) kiritildi. Bundan tashqari, polipeptidlar (Kortекcin, Serebrolizin), pirrolidon hosilasi hisoblangan piratsetam, NMDA-glutamatergik retseptorlar blokatori - akatinol memantin,

antioksidant preparat - mildronat hamda umumiy metabolik jarayonlarni qo‘llab-quvvatlovchi vositalar, jumladan, avvalo vitamin preparatlari qo‘llanildi. Mazkur preparatlarni davolash jarayoniga kiritish tadqiqotga jalb etilgan bemorlarning keksa yoshda ekanligi, ayniqsa, ushbu vositalarning miya metabolizmi va serebral faoliyatga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi bilan bog‘liq edi.

Individual, zarurat tug‘ilganda esa oilaviy psixoterapiya ham barcha bemorlar uchun reabilitatsiya dasturining tarkibiy qismi sifatida amalga oshirildi. Relaksatsion trening, muhit va bandlik terapiyasiga yo‘naltirilgan maxsus mashg‘ulotlar bemorlarning 73,79% o‘tkazildi, kognitiv funksiyalarni rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan mashqlar esa 21,35% bemorlarda qo‘llanildi. Mazkur psixoterapevtik va psixosotsial korreksiya usullarini tanlashga asos sifatida keksa yoshdagi bemorlarda psixosotsial yordamni tashkil etishda ushbu yosh guruhining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish zarurligi haqidagi adabiyot ma’lumotlari va tavsiyalar xizmat qildi (Frazer C.J. et al., 2020; Pinquart M. et al., 2024; Steinman L.E. et al., 2023).

Qon tomir genezli psixoorganik o‘zgarishlar bilan birga kechuvchi depressiv buzilishlarning klinik xususiyatlarini tahlil qilishda, avvalo, gipotimiya (kayfiyat pasayishi) rivojlanishiga sabab bo‘lgan omillarni ko‘rib chiqish lozim. Depressiv epizod shakllanishida turli omillarning o‘rnini qiyosiy baholash natijasida asosiy guruh bemorlarida somatik holatning yomonlashuvi depressiv buzilishlarning yuzaga kelishida taqqoslash guruhiga nisbatan muhimroq ahamiyat kasb etgani aniqlandi. Shu munosabat bilan ta’kidlash joizki, keksa yosh davrida psixopatologik holatlarning shakllanish mexanizmlarida endogen omillar (irsiy moyillik) o‘rnini boshqa omillar egallaydi. Jumladan, ular orasida hamroh somatik patologiyaning kuchayishi, psixoorganik buzilishlarning rivojlanib borishi, kasallik tufayli ijtimoiy va moddiy imtiyozlarga yo‘naltirilgan munosabatlarning shakllanishi, ijtimoiy mavqening pasayishi hamda hayot sifatining yomonlashuvi muhim o‘rin tutadi (Salzman C., Schneider L. et al., 2021; Devanand D.P., 2023; Reynolds C.F., 2023; Spar J.E., 2024).

Rivojlanishi depressiv epizodning ikkala guruhda ham asta-sekin kechgan. Asosiy guruhda depressiyaning anergik varianti taqqoslash guruhi bemorlariga nisbatan statistik jihatdan sezilarli darajada ko‘proq uchragan ($p<0,01$) (2-jadval). Qon tomir geneziga ega psixoorganik buzilishlar bilan birga kelgan bemorlarda melanxolik variant chastotasi taqqoslash guruhining tegishli ko‘rsatkichi bilan statistik jihatdan ahamiyatli farqqa ega bo‘lmagan. Shu bilan birga, oxirgi guruhda depressiyaning xavotirli varianti yaqqol ustunlik qilgan, uning ko‘rsatkichlari asosiy guruh bemorlariga nisbatan ishonchli darajada yuqori bo‘lgan ($p<0,01$).

2-jadval

O‘rganilgan bemorlarda depressiv epizodning variantlari

Depressiya variantlari	Asosiy guruh	Nazorat guruh	F	P
Vaximali	42,73%	64,70%	2,46	<0,01
Melanxolik	20,38%	19,62%	0	>0,05
Anergik	36,89%	15,68%	2,79	<0,01

Depressiya simptomlarining terapiya jarayonidagi dinamikasi depressiya bo‘yicha Hamilton shkalasining ko‘rsatkichlarining aksariyatida pasayish kuzatilgani bilan tavsiflandi. Bu pasayish, odatda, $p<0,01$ darajasida statistik jihatdan ishonchli bo‘ldi. Bunga istisno sifatida, o‘rganilgan bemorlarda depressiv holat tarkibida sust namoyon bo‘lgan va davolash davomida sezilarli o‘zgarish kuzatilmagan simptomlar qayd etildi. Bunday simptomlarga vasvasa, obsessiv-kompulsiv va genital simptomlar kiradi. Shu bilan birga, ta’kidlash joizki, asosiy guruhda davolash jarayonida aybdorlik hissi hamda suitsidal fikrlarning ifodalanganlik darajasi statistik jihatdan ishonchli ravishda kamaydi ($p<0,01$). Taqqoslash guruhida esa ushbu ko‘rsatkichlardagi o‘zgarishlar statistik ishonchlilik darajasiga yetmadi. Shunga qaramay, mazkur ko‘rsatkichlarning kamayish tendensiyasi bu guruhda ham kuzatilgan (3-jadval).

3-jadval

Asosiy guruh bemorlarida davolashdan oldin va keyin depressiyaning klinik namoyon bo‘lishi tavsifi (Gamilton depressiya shkalasi bo‘yicha)

Depressiya simptomlari	Davolashdan oldin	Davolashdan keyin	F	P
Past kayfiyat	0,39±0,08	141,82	141,82	<0,01
Aybdorlik hissi	0,20±0,05	0,03±0,02	8,21	**<0,01**
Suitsidal fikrlar	0,22±0,05	0	11,94	**<0,01**
Uyquga ketish qiyinligi	1,10±0,08	0,67±0,06	36,48	**<0,01**
O`rtacha uyqusizlik	1,15±0,07	0,47±0,05	59,76	**<0,01**
Erta uyg`onishlik	1,14±0,07	0,26±0,04	91,83	**<0,01**
Ish va faoliyat	2,71±0,11	0,61±0,07	135,97	**<0,01**
Tormozlanganlik	0,69±0,08	0,27±0,05	18,76	**<0,01**
Qo‘zg‘alish (ajitatsiya)	1,01±0,08	0,30±0,05	61,94	**<0,01**
Ruhiy xavotir	1,27±0,09	0,13±0,03	110,58	**<0,01**
Somatik xavotir	1,89±0,10	0,91±0,08	79,86	**<0,01**
Oshqozon-ichak simptomlari	0,86±0,08	0,21±0,04	50,91	**<0,01**
Umumiy somatik simptomlar	1,12±0,07	0,49±0,06	44,72	**<0,01**
Genital simptomlar	0,11±0,04	0,03±0,02	3,08	>0,05
Ipoxondriya	1,20±0,09	0,64±0,07	4,03	<0,01
Tana vazni	0,84±0,09	0,08±0,03	55,81	<0,01
Kasallikka tanqidiy munosabat	0,43±0,06	0	35,98	<0,01
Sutkalik o`zgarishlar	0,68±0,07	0,06±0,02	63,14	<0,01
Depersonalizatsiya	0,17±0,05	0,03±0,01	7,96	<0,01
Vasvasa g‘oyalari	0,04±0,02	0	1,73	>0,05
Obsessiv-kompulsiv simptomlar	0,08±0,03	0,04±0,02	1,56	>0,05
Umumiy ball	**19,31±0,35**	**5,53±0,31**	**8,26**	<0,01

Umumiy depressiya balli davolashdan oldin **19,31±0,35** ni tashkil etgan bo‘lsa, davolashdan keyin ushbu ko‘rsatkich **5,53±0,31** gacha kamaydi **(p<0,01).** Mazkur natijalar asosiy guruh bemorlarida qo‘llanilgan kompleks terapiya depressiv simptomlarning yaqqol kamayishiga va bemorlarning klinik holatini sezilarli darajada yaxshilanishiga olib kelganini ko‘rsatadi.

Xulosa. O‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, qon tomir genezli psixoorganik o‘zgarishlar bilan kechuvchi depressiv buzilishlarda kompleks davolash yondashuvi (medikamentoz terapiya va psixokorreksion ta’sirlar) klinik simptomlarni sezilarli darajada kamaytirishga samarali ta’sir ko‘rsatdi. Asosiy guruh bemorlarida davolash jarayonida antidepressantlar, zaruratga ko‘ra neyroleptiklar, anksiyolitiklar, timostabilizatorlar, nootrop va neyrometabolik preparatlardan foydalanildi. Shuningdek, individual va oilaviy psixoterapiya, relaksatsion treninglar hamda kognitiv funksiyalarni tiklashga qaratilgan mashg‘ulotlar reabilitatsiya dasturining muhim tarkibiy qismi bo‘ldi. Davolash natijasida depressiv epizodlarning klinik ko‘rinishlarida ijobiy dinamika kuzatildi. Hamilton depressiya shkalasi bo‘yicha baholashda asosiy guruh bemorlarida umumiy depressiya balli kamaygan bo‘lib, ushbu o‘zgarish statistik jihatdan yuqori ishonchlilikka ega bo‘ldi Depressiyaning asosiy simptomlari, jumladan, past kayfiyat, uyqu buzilishlari, ish va faoliyatning pasayishi, xavotir holatlari, somatik simptomlar, psixomotor o‘zgarishlar hamda depersonalizatsiya belgilarining ifodalanganlik darajasi sezilarli ravishda kamaydi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, asosiy guruh bemorlarida depressiyaning anergik varianti ko‘proq uchragan bo‘lsa, taqqoslash guruhida xavotirli varianti ustunlik qilgan. Bu holat qon tomir genezli psixoorganik o‘zgarishlar mavjud bemorlarda depressiv holatlarning shakllanishida asteniya va energiya yetishmovchiligi bilan bog‘liq buzilishlar muhim o‘rin tutishini ko‘rsatadi. Shuningdek, davolashdan keyin aybdorlik hissi va suitsidal fikrlar kabi klinik jihatdan muhim simptomlarning sezilarli kamayishi kuzatildi. Biroq, vasvasa g‘oyalari, obsessiv-kompulsiv va genital simptomlar kabi boshlang‘ich darajasi past bo‘lgan belgilar bo‘yicha statistik jihatdan ahamiyatli o‘zgarishlar qayd etilmadi. Olingan natijalar qon tomir genezli psixoorganik o‘zgarishlar bilan kechuvchi depressiv buzilishlarda kompleks terapevtik

yondashuvdan foydalanish klinik samaradorlikni oshirish, depressiv simptomlarni kamaytirish, bemorlarning psixoemotsional holatini yaxshilash va ijtimoiy moslashuv imkoniyatlarini kengaytirishga yordam berishini ko‘rsatadi.

REFERENCES/СНОСКИ/IQTIBOSLAR:

1. Katona, C.L.E. Depresson in old age. Katona, C.L.E. Chichester, Wiley Sons. 2022. 36 (4); 160-166. doi.org/10.1080/09540121.2012.668174.
2. Neuman, S. Postoperative cognitive dysfunction after noncardiac surgery: a systematic review. S. Neuman, J. Stygall, C. Hurani et al. 2020. 106 (3), 572-590.
3. Strawbridge, W.J. Physical Activity Reduces the Risk of Subsequent Depression for Older Adults. W.J. Strawbridge, S. Deleger, R.E. Roberts, G.A. Kaplan. 2022. 156 (5). 328-334.
4. Tegeler, J. Erkennung endogenen Depressionen. J. Tegeler. 2023. 126 (4), 47-51.
5. Turaev T.M., Kuchimova Ch.A. Clinical significans of anxiety and depressive disorders in patients with metabolic syndrome. Journal of biomedicine and practice, 2024. Vol. 9, No. 2. P.275-278.
6. Ungvari, G S. Reactive psychosis among elderly people. G. S.Ungvari, P. M. Hantz. 2022. 82(7). 141-144. doi.org/10.1097/QAD.0000000000000697.
7. Vitaja, R. Posstroke depression and lesion location revisited. / R. Vitaja, A. LeppaEvuori, T. Pohjasvaara // J. Neuropsychiatr. Clin. Neurosciences. - 2020. - Vol.16. - P. 156-162.
8. Wong, T.Y. Retinal microvascular abnormalities and their relationship with hypertension, cardiovascular disease, and mortality. T.Y. Wong, R.Klein. 2023. 46 (1). 59-80
9. Williams, G.H. Assessing patients wellness: new perspectives on quality of life and compliance /G.H. Williams //AJH. 2021. - Vol.11, №11-12. - P . 186-190.
10. .Zerbin-Rudin, E. Genetische Aspekte der endogenen Psychosen. Zerbin-Rudin. 2022. 39 (4); 477- 488. doi.org/10.1080/09540120500213487.
11. Rizaev J. A., Ashirov Z. F., Toshev S. U., Islamov N. H., Salamova L. A. [et al.]. Medical and organizational measures to improve the provision of medical care in the dermatovenerology profile // International Journal of Current Research and Review. – 2020. – Vol. 12, No. 24. – P. 120–122.
12. Ризаев Ж. А., Адилова Ш. Т., Пулатов О. А. Обоснование комплексной программы лечебно-профилактической стоматологической помощи населению Республики Узбекистан // Аспирант и соискатель. – 2009. – С. 73–74.
13. Alimdjanovich J. R., Ibragimovich A. K. Organization of monitoring of the quality of services provided for the prevention and fight against postpartum bleeding in women // Central Asian Journal of Medical and Natural Sciences. – 2021. – Vol. 2, No. 6. – P. 14–21.
14. Alimjanovich J. R., Agababyan L. R., Kamalov A. I. Prevention and treatment of postpartum hemorrhage // Central Asian Journal of Medical and Natural Sciences. – 2021. – Vol. 2, No. 4. – P. 204–209.

ISSN 2181-9300

DOI Journal 10.26739/2181-9300

БИОМЕДИЦИНА ВА АМАЛИЁТ ЖУРНАЛИ
ЖУРНАЛ БИОМЕДИЦИНЫ И ПРАКТИКИ
JOURNAL OF BIOMEDICINE AND PRACTICE

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; E-mail: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; E-mail: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000